

“TASDIQLANGAN”

“InFinBank” AJ

Boshqaruv Raisi v.v.b

B.S.Djurayev

F.O.

Imzo

Sana

(“InFinBank” AJ Boshqaruvining

2025 yil “19” 11 dagi 305 sonli
Bayonnomasi)

Ro‘yxat raqami TP 21 -sonli
2025 yil «19» 11

TT 21 - sonli

**““InFinBank” AJ tomonidan ajratilgan kreditlar
ta’minotiga qabul qilingan garov mulklarini
garovdan ozod qilish yoki garov narsasini
almashtirish”
tartibi**

Mazkur xujjat “InFinBank” AJning mulki hisoblanadi. Ushbu hujjatning mazmuni sifat bo‘yicha rahbariyat vakili bilan oldindan kelishilmagan holda to‘liq yoki qisman qayta chop etilishi yoki bank xodimlari bo‘lmagan uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emas. Har qanday o‘zgartirishlar asl nusxaga va faqat ushbu hujjatning nazorat qilinadigan nusxalariga kiritiladi.

MUNDARIJA:

O‘ZGARISHLARNI RO‘YXATGA OLISH VARAQASI.....	3
1. MAQSAD.....	4
2. QO‘LLANILISH SOHASI.....	4
3. HAVOLALAR.....	4
4. ASOSIY TUSHUNCHALAR, ATAMALAR VA TA’RIFLAR.....	4
5. ARIZA QABUL QILISH VA RO‘YXATGA OLISH TARTIBI.....	5
6. AVVAL QABUL QILINGAN TA’MINOTNI BOSHQASIGA ALMASHTIRISH HAMDA KREDITLAR BO‘YICHA TA’MINOT SIFATIDA AVVAL QABUL QILINGAN MOL-MULKNI OZOD ETISH BO‘YICHA QAROR QABUL QILUVCHI ORGANLAR	5
7. KREDITLAR BO‘YICHA AVVAL GAROVGA OLINGAN MOL-MULKLARNI QISMAN GAROVDAN OZOD QILISH SHARTLARI.....	6
8. JAVOBGARLIK.....	7
9. JARAYON.....	8
10. SAQLASH.....	8
11. ILOVALAR.....	8
12. YAKUNIY QOIDALAR.....	8
13. TARQATISH.....	8
14. TANISHTIRISHLARNI QAYD ETISH VARAQASI.....	9

Tasdiqlangan: 19/11/2025
yil

Amal qilish muddati: 31/12/2027
yil

10 tadan 3-bet

O‘zgarishlarni ro‘yxatga olish varaqasi

O‘zgartirishlar raqami	O‘zgartirishlar mazmuni	Tasdiqlangan	Amalga kiritilgan	Hujjatni yuritish bo‘yicha mas’ul shaxsning imzosi

1. MAQSAD

1.1. Ushbu Tartib “InFinBank” AJ (keying o‘rinlarda – Bank) tizimida ajratilgan kreditlar ta’minotiga qabul qilingan garov mulklarini kreditning asosiy qarzi qoldig‘ga mutanosib ravishda bosqichma-bosqich garovdan chiqarish yoki garov narsasini almashtirish tartibini belgilaydi.

2. QO‘LLANILISH SOHASI

2.1. Ushbu Tartib talablari “InFinBank” AJ (keying o‘rinlarda – Bank) tizimida ajratilgan kreditlar ta’minotiga qabul qilingan garov mulklarini kreditning asosiy qarzi qoldig‘ga mutanosib ravishda bosqichma-bosqich garovdan chiqarish yoki garov narsasini almashtirish jarayonlarida ishtirok etadigan “InFinBank” AJning barcha bo‘linmalariga (bankning barcha hududiy filiallari, Bosh ofisning barcha tegishli departamentlari) va mansabdor shaxslariga taalluqlidir.

3. HAVOLALAR

Ushbu Tartib quyidagi hujjatlar asosida ishlab chiqilgan:

- O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi” Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining “Garov to‘g‘risida”gi Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining “Ipoteka to‘g‘risida”gi Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2018-yil 28-apreldagi 16/18-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Bank xizmatlari iste‘molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risida”gi Nizomi (O‘z.Res. Adliya vazirligida 2018-yil 2-iyulda 3030-son bilan ro‘yxatga olingan).

Amaldagi qonun hujjatlari, boshqa qonun hujjatlari va “InFinBank” AJ ichki me‘yoriy hujjatlari talablari asosida ishlab chiqilgan.

4. ASOSIY TUSHUNCHALAR, ATAMALAR VA TA‘RIFLAR

Iste‘molchilar - bank xizmatidan foydalanish istagida bankka murojaat qilgan, ushbu xizmatdan foydalanayotgan yoki oldin foydalangan jismoniy yoki yuridik shaxslar.

Murojaat - iste‘molchi (yoki uning vakili) tomonidan og‘zaki, yozma yoki elektron shaklda bankka yuborilgan bank xizmatlarini ko‘rsatishga taalluqli ariza, shikoyat yoki taklif.

Kredit - banklar tomonidan beriladigan kredit, mikroqarz, mikrokreditlar va boshqa turdagi kreditlar.

Mol-mulk - fuqarolik huquqlari obyekti sifatida ko‘chmas mulk va ko‘char mulkka bo‘linuvchi mulklar

Bank filiali – “InFinBank” AJning viloyatlardagi barcha filiallari, Toshkent shahridagi filiallar va Amaliyot boshqarmasi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Qoraqalpog‘iston filiali.

Garov narsasi - ashyolar, qimmatli qog‘ozlar, pul mablag‘lari, shaxsiy yordamchi xo‘jalik yuritish, yakka tartibda uy-joy qurish uchun kim oshdi savdosi asosida olingan yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik huquqi, shuningdek savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi ob‘ektlari, turar joy binolari ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda, boshqa mol-mulk va

mulkiy huquqlar.

Kredit bo‘yicha monitoringni yurituvchi tuzilma - kreditlar bo‘yicha ta’minot sifatida avval qabul qilingan mol-mulkni ozod etish va navbatdagi garovni rasmiylashtirish (garovni tarqatish), avval qabul qilingan ta’minotni boshqasiga almashtirish masalalari bo‘yicha loyiha (kreditning) joriy holati bo‘yicha xulosa beruvchi tarkibiy tuzilma;

Bankning qaror qabul qiluvchi organlari – Amaliyot boshqarmasi Kichik kredit qo‘mitasi/Filial Kredit komissiyasi, Bank Kredit qo‘mitasi, Bank Boshqaruvi, Bank Kengashi, Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi.

Bozor qiymati – mustaqil baholovchi tashkilot tomonidan aniqlangan va uning hisobotida aks ettirilgan qiymat.

5. ARIZA QABUL QILISH VA RO‘YXATGA OLISH TARTIBI

5.1. Qarz oluvchi yoki garovga qo‘yuvchi garov mulkini bosqichma-bosqich garovdan chiqarish yoki garov predmetini almashtirish bo‘yicha Bankka yozma ariza bilan murojaat qiladi:

Ariza Bank tomonidan 1 bank ish kuni ichida ro‘yxatga olinadi;

Bank tomonidan arizaga ilova sifatida garov mulkiga oid hujjatlar, mustaqil baholash tashkilotining baholash hisobotlari va boshqa tegishli hujjatlar talab qilib olinishi mumkin.

5.2. Arizani ko‘rib chiqish muddati:

“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 28-moddasiga muvofiq, murojaat garov mulkiga oid hujjatlar to‘liq taqdim qilingandan so‘ng 15 kun ichida ko‘rib chiqiladi;

Murojaat bankning vakolatli kollegial organi tomonidan o‘rganib chiqib ijobiy yoki rad etish bo‘yicha (asoslantirilgan holda) qaror qabul qilingandan so‘ng 3 bank ish kuni ichida murojaatchiga yozma ravishda ma’lum qilinadi.

Qo‘shimcha o‘rganish talab etilgan hollarda hamda hujjatlarni so‘rab olish talab etilganda esa, bir oygacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqilishi mumkin, bu haqda arizachiga yozma ravishda xabar beriladi.

6. AVVAL QABUL QILINGAN TA’MINOTNI BOSHQASIGA ALMASHTIRISH HAMDA KREDITLAR BO‘YICHA TA’MINOT SIFATIDA AVVAL QABUL QILINGAN MOL-MULKNI OZOD ETISH BO‘YICHA QAROR QABUL QILUVCHI ORGANLAR

6.1. Filialga o‘rnatilgan vakolati doirasiga kiruvchi loyihalar bo‘yicha avval qabul qilingan garovni boshqasiga almashtirish yoki garovdan chiqarish (ozod etish), filial Kredit komissiyasi/Amaliyot boshqarmasi kichik kredit qo‘mitasining ijobiy qarori mavjud bo‘lganda, loyiha bo‘yicha monitoringni yurituvchi tuzilmaning loyiha bo‘yicha xulosasi asosida ushbu yo‘nalish bo‘yicha mas’ul Boshqaruv Raisining o‘rinbosari ruxsati bilan amalga oshiriladi.

6.2. Bank Kredit qo‘mitasi qarori asosida ajratilgan kreditlar bo‘yicha, filial Kredit komissiyasi/Amaliyot boshqarmasi kichik kredit qo‘mitasining va Bosh ofis loyihalari bo‘yicha kreditlarning avval qabul qilingan ta’minotni boshqasiga almashtirish, qo‘shimcha ta’minoti yoki navbatdagi garov (garovni tarqatish) sifatida mol-mulkni rasmiylashtirish yoki garovdan chiqarish (ozod etish) to‘g‘risidagi qaror kredit bo‘yicha monitoringni yurituvchi bo‘linma/tuzilmaning loyiha bo‘yicha/tashabbuskor kreditlovchi tarkibiy bo‘linma/tuzilmaning xulosasi asosida Bank Kredit qo‘mita (Bank Boshqaruvi, Bank Kengashi) tomonidan qabul qilinadi.

6.3. Chakana kreditlar bo‘yicha ta’minot sifatida avval taqdim etilgan jismoniy shaxslar kafilligini

Tasdiqlangan: 19/11/2025
yil

Amal qilish muddati: 31/12/2027
yil

10 tadan 6-bet

boshqasiga almashtirish yoki garovdan chiqarish (ozod etish), filial Kredit komissiyasi/Amaliyot boshqarmasi kichik kredit qo‘mitasining ijobiy qarori mavjud bo‘lganda, kredit bo‘yicha monitoringni yurituvchi bo‘linma xulosasi asosida ushbu yo‘nalish bo‘yicha mas‘ul Boshqaruv Raisining o‘rinbosari ruxsati bilan amalga oshiriladi.

6.4. Agar loyihani moliyalashtirish to‘g‘risidagi qaror bankning Kredit qo‘mitasi/Bank Boshqaruvi va/yoki Bank Kengashi tomonidan qabul qilingan bo‘lsa, ushbu loyihaning garov predmetini almashtirish masalasi bo‘yicha yakuniy qaror, yuqoridagi vakolatli organlar tomonidan qabul qilinadi. Bunda loyiha ko‘rib chiqish vaqtida

6.5. Agar Bank Kengashi tomonidan kredit ajratilishi ma‘qullanganidan keyin bitimga o‘zgarishlar kiritiladigan taqdirda, kredit operatsiyasini o‘tkazish to‘g‘risida masala dastlab Bank Kengashiga kiritilishiga sabab bo‘lgan holatlar o‘zgargan bo‘lsa (masalan, Bank Kengashi tomonidan ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan limit nominal summasi o‘zgarganda yoki mijoz Bangga aloqador shaxs bo‘lmay qolganda), kredit bo‘yicha garovdan chiqarish yoki boshqa garovga almashtirish to‘g‘risidagi qaror ana shu o‘zgartirishlar kiritilayotgan paytda vakolatli bo‘lgan organ tomonidan qabul qilinadi.

6.6. Garov ta’minotiga taqiq saqlangan holda garovga qo‘yilgan obyektga o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq operatsiyalarda, jumladan: texnik, texnologik, rekonstruksiya qilish va/yoki mulk huquqlarini yangi mulkdorga o‘zgartirish, mulkning bozor (garov) qiymati yomonlashish va/yoki pasayishiga ta’sir qilmagan hollarda, filialning murojaati asosida Boshqaruv Raisining ushbu yo‘nalish bo‘yicha mas‘ul o‘rinbosarining yozma ruxsati bilan amalga oshirilishiga yo‘l qo‘yiladi. Bunda garov shartnomasiga o‘zgartirish talab etilmaydigan holatlar (avtotransport vositasiga gaz moslamasi o‘rnatish, yo‘qolgan qayd etish guvohnomasini (tex pasport) qayta tiklash, kadastr hujjatlarini Uzkad tizimidan ro‘yxatdan o‘tkazish) bo‘yicha qaror qabul qilish filial boshqaruvchisi zimmasiga yuklatiladi.

7. KREDITLAR BO‘YICHA AVVAL GAROVGA OLINGAN MOL-MULKLARNI QISMAN GAROVDAN OZOD QILISH SHARTLARI

7.1. Loyiha bo‘yicha kredit qoplangan qismidan ortiq summadagi garov ta’minotini garovdan ozod etishda quyidagi omillarga amal qilinishi shart:

- mijoz tomonidan kredit majburiyatlarining boshlang‘ich qiymatidan 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda to‘lovlar amalga oshirilganligiga;

- muddati o‘tgan to‘lov/qarzdorliklar mavjud bo‘lmashligiga;

- kredit bo‘yicha oxirgi to‘lov muddati uzaytirilmaganligiga (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari yoki farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, yig‘ilish bayonlari qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qarorlariga muvofiq qayta ko‘rib chiqilgan loyihalar bundan mustasno);

- kreditning “standart” aktiv sifatida tasniflangan bo‘lishiga.

Bunda Kredit obyektini realizatsiyasi orqali kredit qoplanishi nazarda tutilgan loyihalar bundan mustasno (qurilish korxonalari, lizing kompaniyalar).

Ushbu tartibning 7.1.-bandida ko‘rsatilgan talablar muddati o‘tgan qarzdorligi mavjud yoki muammoli deb tasniflangan aktivlar bo‘yicha, agar garov obyektini garov bahosidan kam bo‘lmagan miqdorda bankni qanoatlantiradigan qiymatda to‘lov amalga oshirilgan hollarda tadbiq etilmasligiga yo‘l qo‘yiladi.

Loyiha bo‘yicha, qabul qilingan ta’minot/garov predmetini garovdan chiqarish (ozod etish) uchun, bank yakuniy qaror qabul qilish maqsadida, loyiha bo‘yicha garovda bo‘lgan barcha garov predmetini bozor qiymatini aniqlash maqsadida, qaytadan (yangilangan) mustaqil baholovchining hisobotini talab qilishi, so‘ngra ushbu hisobotni haqqoniyligini tekshirish maqsadida, baholash yo‘nalishi bo‘yicha, bank ekspertlari xulosasi olinishi hamda garov bahosini qayta ko‘rib chiqishi mumkin.

Bankning kredit mablag‘lari hisobiga sotib olingan/barpo etilgan mol-mulklarni garovdan ozod qilish yoki boshqa mulkka almashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Kredit obyektini realizatsiyasi orqali kredit qoplanishi nazarda tutilgan loyihalar bundan mustasno (qurilish korxonalari, lizing kompaniyalar). Bunda, turar-joy va/yoki lizing obyektlari sotilishidan tushgan mablag‘, to‘liq hajmda kreditni so‘ndirishga yo‘naltirilishi hamda garov tarkibida qolayotgan ta’minot miqdori kredit qoldig‘ining 125 foizidan kam bo‘lmasligi (qisman yoki to‘liq pul mablag‘lari bilan ta’minlangan kreditlar bundan mustasno). Shuningdek, bank bilan aloqador bo‘lgan shaxslar yoki bank bilan aloqador shaxs nomidan faoliyat yuritadigan shaxslar uchun esa O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 29-oktyabrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3283-sonli Nizomi talablariga asosan bo‘lishi lozim.

Ta’minot turining o‘zgartirilishi yoki kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta’minotdan chiqarish jarayonida majburiyatlar qoldig‘iga nisbatan likvid garov ta’minoti bilan ta’minlanishi lozim.

Bank kredit bo‘yicha tuziladigan garov shartnomasida bankning garov ta’minotiga qo‘yilgan talablardan kelib chiqqan holda qarz oluvchining kreditning qoplanmagan qismidan ortiq summada garov ta’minoti summasini kamaytirish huquqini, shuningdek garov ta’minotini kamaytirish tartibi va usullarini ushbu tartibda belgilangan shartlarda aks ettiriladi.

Kredit qarzdorligini qoplash maqsadida bank garovga qo‘yilgan mol-mulknii suddan tashqari tartibda qonunchilikda taqiqlanmagan usullar orqali garovga qo‘yuvchi bilan qonunchilikda belgilangan tartibda kelishgan holda realizatsiya qilishi mumkin.

Bunda, bank mol-mulknii realizatsiya qilishdan tushgan mablag‘larni kredit qarzdorligi va boshqa xarajatlarga yo‘naltirilishi yuzasidan qarz oluvchi va garovga qo‘yuvchiga yozma ma’lumot yuborilishini ta’minlashi lozim.

8. JAVOBGARLIK

8.1. Ushbu Tartib jarayonlarining barcha ishtirokchilari bankning ichki me’yoriy hujjatlariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq o‘z funksiyalari va majburiyatlarini to‘g‘ri bajarish uchun javobgardirlar.

8.2. Filial/Amaliyot boshqarmasining tegishli xodimlari qarzdorlikni so‘ndirish evaziga mol-mulklarni balansga qabul qilish, ushbu mulklarni realizatsiya qilish va hisobini yuritish ishlarini amaldagi qonunchilik hamda mazkur tartib talablari asosida amalga oshirilishiga mas’ul hisoblanadilar.

8.3. Loyihalarni ko‘rib chiqish bo‘yicha hujjatlar yig‘majildining shakllantirilishi, shuningdek tegishli hujjatlarning elektron nusxalari tegishli platformaga biriktirib borilishiga filialda faoliyat yurituvchi filialning tegishli Bek-ofisi bo‘limi mas’ul xodimi va ushbu bo‘lim boshlig‘i javobgar hisoblanadi.

8.4. Bank filiallarida ushbu Tartibda belgilangan ko‘rsatmalar, muddatlar va miqdorlarga amal qilinishini nazorat qilish vazifasi shaxsan filial Boshqaruvchisi/Amaliyot boshqarmasi boshlig‘i zimmasiga yuklatiladi.

9. JARAYON

9.1. “InFinBank” AJ tizimida ajratilgan kreditlar ta’minotiga qabul qilingan garov mulklarini kreditning asosiy qarzi qoldig‘ga mutanosib ravishda bosqichma-bosqich garovdan chiqarish yoki garov narsasini almashtirish bo’yicha barcha jarayonlar ushbu Tartib doirasida ishlab chiqiladigan tartiblar asosida amalga oshiriladi va tashkil qilinadi.

10. SAQLASH

10.1. Mazkur Tartibning asl nusxasi Bank Yuridik departamentining Metodologiya bo‘limida 21 - raqam bilan saqlanadi. Mazkur Tartibning PDF formatidagi elektron nusxasi foydalanish uchun umumiy serverda saqlanadi. Mazkur Tartibning DOCX formatidagi elektron nusxasi ushbu hujjatni ishlab chiquvchida va Bank Yuridik departamentining Metodologiya bo‘limida navbatdagi o‘zgartirishlar va qo‘shimchalarni kiritish uchun saqlanadi.

11. ILOVALAR

11.1. Mazkur Tartib ilovalarni o‘z ichiga olmaydi.

12. YAKUNIY QOIDALAR

12.1. Mazkur Tartib bilan tartibga solinmagan masalalar amaldagi qonunchilik hujjatlari va Bankning ichki qoidalarini bilan hal etiladi.

12.2. Bank xodimlari tomonidan mazkur ichki qoida bilan tartibga solinadigan munosabatlarda yuzaga kelgan va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar aniqlanganda yoki sodir etilishiga shubha tug‘dirgan har qanday holatlar haqida bankning Komplayens nazorat departamentini xabardor qilishi shart.

12.3. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari talablari o‘zgargan holda, zaruratga ko‘ra ushbu Tartibga o‘zgartirish kiritilguncha qonunchilik normalaridan kelib chiqib ish yuritiladi.

12.4. Mazkur Tartibga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish bank Boshqaruvi qaroriga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

12.5. Mazkur Tartib Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

12.6. Mazkur Tartib kuchga kirgan sanadan e’tiboran Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan “InFinBank” AJning korporativ kreditlash bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladigan kredit operatsiyalari bo’yicha ta’minotni qabul qilish tartibiga 1-sonli (2024-yil 22-fevralda 35-sonli Bayonnoma bilan tasdiqlangan, 194/1-son bilan ro‘yxatga olingan) o‘zgartirishning 3-sonli ilovasi va hamda 2-sonli qo‘shimcha tartibi (2024 yil 21-avgustda 171-sonli Bayonnoma bilan tasdiqlangan, 194/2-son bilan ro‘yxatga olingan) o‘z kuchini yo‘qotadi

13. TARQATISH

Hujjatlarni bo‘linmalar bo’yicha tarqatish ro‘yxati		To‘ldirish sanasi
		<u>«19» 11 2025 yil</u>
TT- <u>21</u>	1-Tahrir	Amalga kiritish sanasi: <u>«19» 11 2025 yil</u>
Tarqatilishi lozim bo‘lgan hujjatning nomi		““InFinBank” AJ tomonidan ajratilgan kreditlar ta’minotiga qabul qilingan garov mulklarini kreditning asosiy qarzi qoldig‘ga mutanosib ravishda bosqichma-bosqich garovdan chiqarish yoki garov narsasini almashtirish” tartibi